



2018 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi



RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **44,5 trln.so'mni**, o'sish **11,8 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-105,2 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **30,1 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **28,8 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'iyicha 2018 yilning yanvar-mart oylarida respublika korxonalari tomonidan 44,5 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,6 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 5,8 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 36,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,3 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 5,2 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,4 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 32,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,3 punkt) o'sishi hisoblanadi.

Yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da







- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,6 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,2 martaga, kaolin - 97,0 % ga, shag'al – 44,0 % ga, gaz kondensati – 19,4 % ga, ko'mir - 18,4 % ga va tabiiy gaz – 6,4 % ga oshganligini, shu bilan birga neft qazib olish hajmining 10,3% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-mart oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	Ko'mir, ming tonna		
918,1		1087,0	118,4 ↑
	Neft, ming tonna		
206,0		184,9	89,7 ↓
	Tabiiy gaz, mln.kub.metr		
13820,6		14711,8	106,4 ↑
	Gaz kondensati, ming tonna		
447,7		534,5	119,4 ↑

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,8 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 73,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiya tarmog'ining ulushi 1,3 % ni (2017 yil yanvar-mart oylarida - 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 27,2 % (18,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 30,9 % (26,4%) va quyi texnologiyali - 40,6 % (53,4%) tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan traktor ishlab chiqarish 6,1 martaba, yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz) – 44,7 % ga, avtomobil dvigatellari 43,5 % ga, akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar – 19,3 % ga, dizel yoqilg'isi – 18,2 % ga, avtomobil benzini - 11,6 % ga va o'simlik yog'i (tozalangan) – 2,9 % ga oshganligini va paxta tolasi, tamaki mahsulotlari, portlandsement, avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-mart oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz), dona			
26287		38029	144,7 ↑
Yuk avtomobillari, dona			
879		485	55,2 ↓
Avtobuslar, dona			
208		137	65,9 ↓
Avtomobil dvigatellari, dona			
21181		30403	143,5 ↑
Paxta tolasi, ming tonna			
369,0		366,0	99,2 ↓
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna			
66,2		68,2	102,9 ↑

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
2507,0		2394,0	95,5 ↓
Avtomobil benzini, ming tonna			
277,6		309,9	111,6 ↑
Dizel yoqilg'isi, ming tonna			
246,3		291,2	118,2 ↑
Portlandsement, ming tonna			
1976,9		1725,6	87,3 ↓
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna			
2041,4		2434,9	119,3 ↑
Traktorlar, dona			
71		432	6,1 marta ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,6 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,2 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash tizimi hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga va gazzimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 1,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 446,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni - 71,2 % ga, tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni - 50,1 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 19,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 10,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 13,4 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,1 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 48,9 % dan 2018 yilning yanvar-mart oylarida 60,5 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati va Toshkent shahari (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,0 % dan ulushini), Navoiy (11,8 %), Andijon (9,9 %), Qashqadaryo (7,3 %), Farg'ona (6,2 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Shu bilan birga eng kam ulushi Jizzax va Surxondaryo (1,5 %dan), Sirdaryo (2,2 %), Namangan (2,3 %) va Xorazm (2,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Surxondaryo (2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 143,3 % ga), Andijon (133,6 % ga), Xorazm (120,2 % ga), Qashqadaryo (113,3 % ga) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (112,9 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-mart oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (5473,4 ming so'm), Toshkent shahrida (2876,0 ming so'm), Toshkent (2486,9 ming so'm) va Andijon (1456,8 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (1359,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha aholi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 140,4 % ga), Andijon (131,4 % ga) va Xorazm (118,3 % ga) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Samarqand (96,5%), Buxoro (99,2%) va Navoiy (99,8%) viloyatlarida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 28,8 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 67,1 %), Namangan (57,9 %), Samarqand (53,2 %) va Jizzax (48,7 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy viloyatida (11,3 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (11,8 %), Toshkent (16,6 %) va Qashqadaryo (17,4 %) viloyatlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda respublikada 51 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 12330 tasi Toshkent shahriga, 5518 tasi Farg'ona, 5380 tasi Toshkent, 4989 tasi Andijon, 3905 tasi Namangan, 3837 tasi Samarqand, 2261 tasi Buxoro, 2190 tasi Xorazm, 2147 tasi Qashqadaryo, 1951 tasi Jizzax, 1718 tasi Surxondaryo, 1585 tasi Navoiy, 1130 tasi Sirdaryo viloyatlariga va 1455 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik




Joriy yilning yanvar-mart oylarida respublikada 3 mingdan ortiq yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 70 % Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi.

Sanoatdagi mehnat unumdorligi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 2018 yil yanvar-mart oylarida sanoatda band bo'lgan 1 kishiga mehnat unumdorligini o'tgan yilga nisbatan 10,1% ga o'sish imkonini berdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida sanoatda band bo'lgan bir kishiga sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati (sanoat band bo'lgan 1 kishiga ming so'm)



Shu bilan birga, mehnat unumdorligi Navoiy viloyatida (45445,7 ming so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasida (32517,9 ming so'm), Qashqadaryo viloyatida (31229,0 ming so'm), Sirdaryo viloyatida (29126,2 ming so'm), Toshkent shahrida (28083,6 ming so'm), Toshkent (24378,3 ming so'm) va Andijon (23459,5 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (22750,0 ming so'm) yuqoriligi kuzatildi.

Davlat statistika qo'mitasining Sanoat statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

J.Sharipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46